QIYOSIY TILSHUNOSLIK: TARJIMADA INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARINI TAQQOSLASH

Rizoberdiyeva Dildora Anvar qizi
SamDChTI Ingliz tili fakulteti 1-kurs talabasi

Annotatsiya. *Maqolada ingliz va o‘zbek tillarining grammatik hamda leksik tizimlari qiyosiy aspektda tahlil qilinib, tarjimada eng ko‘p uchraydigan muammolar aniqlanadi va ularni bartaraf etish yo‘llari ko‘rsatiladi. Tadqiqotda kontekst turlari (lingvistik va ekstralingvistik), leksik transformatsiya, transliteratsiya va transpozitsiya usullari, shuningdek, ikki tilning morfologik va sintaktik muvofiqligi misollar asosida yoritilgan. Alohida e’tibor idiomalarga qaratilib, ularning madaniy va grammatik tabiati ochib beriladi. Maqola xulosalari tarjimonlar va til o‘rganuvchilar uchun amaliy ahamiyatga ega.*

Kalit so‘zlar: *idioma, lingvistik, ekstralingvistik, leksik transformatsiya, transliteratsiya, analitik xususiyat, morfologik muvofiqlik, sintaktik muvofiqlik, transpozitsiya, frazeologiya.*

Kirish. Globallashuv davrida tarjima tillar o‘rtasidagi oddiy ko‘prik emas, balki madaniyatlarni bir-biriga tushuntiruvchi vositaga aylandi. Ayniqsa, ingliz tilidan o‘zbek tiliga aniq va tabiiy tarjima qilish bugun dolzarb vazifadir. Biroq bu oson emas: ingliz tili hind-yevropa tillar oilasining german guruhiga, o‘zbek tili esa turkiy tillar oilasiga mansub bo‘lib, ular tuzilishi jihatidan sezilarli farq qiladi. Shu sababli tarjimada lug‘aviy, grammatik va madaniy muammolar yuzaga keladi.

Maqolaning maqsadi — ikki tilni qiyosiy o‘rganib, tarjimadagi asosiy qiyinchiliklarni aniqlash va ularning yechimini ko‘rsatishdir. Buning uchun lingvistik va ekstralingvistik kontekstni tahlil qilish, leksik transformatsiya, transliteratsiya va transpozitsiyani misollar bilan yoritish, morfologik va sintaktik muvofiqlikni solishtirish hamda idiomalarni tarjima qilish xususiyatlarini ko‘rsatish vazifalari belgilandi. Tadqiqotda qiyosiy-chog‘ishtirma va tahliliy usullardan foydalanildi.

Tarjima jarayonida mos muqobil variantni topish tarjimonga qiyinchilik tug‘diradi. Tarjimada so‘z ma’nolarini taxminiy tarjima qilish man etiladi. Kontekst tarjimonning eng ishonchli quroli. Tilshunoslikda odatda kontekstning 2 turi mavjud, ya’ni lingvistik va ekstralingvistik. Lingvistik — bu tilning rasmiy qoidalari, lug‘atdagi so‘zlar va grammatikadir. Ekstralingvistik — gapning asl ma’nosini butunlay o‘zgartirib yuboradigan tashqi muhit va holat. Kontekstda odatda so‘zlar o‘z ma’nosida qo‘llanmaganda, ya’ni ko‘chma ma’noda qo‘llanganda tarjima muammosi paydo bo‘ladi.

Masalan, ingliz tilidagi “bus” so‘zini olaylik. Bu so‘z ot ma’nosida “avtobus”, fe’l ma’nosida esa faqat Amerika so‘zlashuvida, bolalarni bir hududdan ikkinchi hududga avtobusda tashimoq ma’nolariga ega. O‘zbek tilida “qo‘l” tushunchasi bitta so‘z bilan ifodalanadi, ingliz tilida esa bu tushuncha “hand” (kaft, qo‘lning uchi) va “arm” (yelkadan bilakkacha bo‘lgan qism) so‘zlari orqali beriladi. Bundan tashqari, “hand” so‘zi ko‘chma ma’noda ham qo‘llanadi va ular o‘zbek tilidagi ayrim ko‘chma ma’nolarga to‘g‘ri kelsa ham, farq qiladigan jihatlari ko‘p. Bu muammolarni hal qilish uchun 2 tilli lug‘atlar muhim ahamiyatga ega.

Tarjimada so‘zma-so‘z, g‘alati yoki tushunarsiz birikmalarni qo‘llashdan qochish, ularning o‘rniga adabiy, hamma tushunadigan so‘zlardan foydalanish uchun leksik transformatsiyalarga murojaat qilinadi. Leksik transformatsiya bu so‘zlarni kontekstda almashtirish hisoblanadi. O‘zbek tilidagi fe’llar aniq va konkret ma’noni ifodalaydi, ammo ingliz tilida fe’llar kontekstga moslashadi. Masalan, ingliz tilidagi “to get” ko‘p ma’noli fe’lni tahlil qilib chiqaylik. Bu fe’lni tarjima qilish uchun kontekst albatta zarur. Uni o‘zbek tiliga “olmoq”, “tushunmoq”, “aloqa qilmoq”, “yutib olmoq”, “aylanmoq” va boshqa bir qator ma’nolarga o‘girish mumkin. Ingliz tilida fe’l predlog bilan qo‘llanganda uning ma’nosi butunlay o‘zgarib ketish xususiyatiga ega. Masalan, shu fe’lning o‘zi “to get out” shaklida ham bir nechta ma’noni bildiradi, ya’ni “chiqmoq”, “chiqib ketmoq”, “tushmoq” kabi.

Tarjima jarayonida transliteratsiya — so‘z talaffuzlarini berish, saqlash jarayoni muhim ahamiyatga ega. Bu usul asosan muqobili yo‘q so‘zlarni tarjima qilishda xizmat qiladi. Masalan, o‘zbek tiliga ingliz tilidagi Hamlet so‘zi 2 yo‘l bilan beriladi: Gamlet va Hamlet. Ikkinchi shakl ingliz tilidagi yozilishi va talaffuziga juda yaqin, birinchisi esa rus tili orqali o‘zlashgan. Bu bir ismning ikki xil yozilishiga olib keladi va asosan asar janriga bog‘liq. Ko‘p hollarda ism davr va matnning qaysi janrda yozilganiga qarab transliteratsiya qilinadi.

Morfologik jihatdan ingliz tili analitik, o‘zbek tili esa agglyutinativ xususiyatga ega, ya’ni o‘zbek tilida grammatik shakl va yasama so‘zlar so‘z o‘zagi va negiziga affikslar qo‘shilishi natijasida yasaladi. Ingliz tilida so‘z tartibi qat’iy. Masalan, ega + kesim + to‘ldiruvchi tartibi saqlanadi: The dog bit the boy va The boy bit the dog gaplari butunlay boshqa ma’noni bildiradi. Ammo o‘zbek tilida so‘z tartibi qat’iy emas, gap bo‘laklari o‘rnini almashib kelishi mumkin: “It bolani tishladi” va “Bolani it tishladi” gaplarida ma’no o‘zgarmaydi. Biz grammatik muvofiqlikni 2 qismga bo‘lamiz: morfologik va sintaktik.

Morfologik muvofiqlikka grammatik kategoriyalarning mos kelmasligini olsak bo‘ladi. Masalan: ingliz tilida 2 ta kelishik bor, o‘zbek tilida esa 6 ta kelishik mavjud. O‘zbek tilida egalikning grammatik kategoriyasi mavjud. Ammo ingliz tilida egalik qo‘shimchalari mavjud emas, bunday holatlarda olmoshlardan foydalanadi. Shuningdek, ingliz tilida aniqlik va

noaniqlik “a/an”, “the” artikllari orqali ifodalanadi, ammo o‘zbek tilida bunday xususiyat yo‘q.

Sintaktik muvofiqlik deganda so‘z tartibi, so‘zning tushib qolishi va so‘zlarning o‘rin almashishi holatlari tushuniladi. Bundan tashqari, ingliz tilida predloglar qo‘llaniladi, o‘zbek tilida esa predlog yo‘q, uning vazifasini kelishik qo‘shimchalari va ko‘makchilar bajaradi. Transpozitsiya — ayni tildagi lingvistik elementlar tartibi yoki o‘rnini o‘zgartirishdir. Masalan, “At the breakfast table he read a newspaper” gapi o‘zbek tiliga “U nonushta stolida gazeta o‘qidi” deb o‘girilganda, so‘zlar tartibi o‘zgaradi.

Idiomalarning bir necha turi mavjud bo‘lib, ularning har birini tarjima qilishda alohida yondashuv talab qilinadi. Ingliz tilidagi idiomalarni o‘zbek tiliga tarjima qilganda so‘zma-so‘z tarjima qilinmaydi, chunki idioma bir nechta so‘zdan tashkil topganda o‘z ma’nosini yo‘qotib, birikma tarzida mutlaqo boshqa ma’noni ifodalaydi. Masalan, “break a leg” iborani “oyog‘ingni sindir” deb tarjima qilish mutlaqo noto‘g‘ri, uni “Omad yor bo‘lsin!” deb o‘girish kerak. Ko‘pincha tillarning madaniyati turlicha bo‘lgani uchun bir xil obraz topilmaydi. Masalan, “when pigs fly” “cho‘chqalar uchganda” deb emas, “tuya dumi yerga tekkanda” deb tarjima qilinadi. Shuningdek, o‘zbek tilidagi iboralarni ingliz tiliga tarjima qilinganda ham so‘zma-so‘z tarjima qilib bo‘lmaydi. Misol uchun, “Hamirdan qil sug‘urganday” ibora ingliz tiliga “A piece of cake” deb tarjima qilinadi.

Xulosa. Tahlil shuni ko‘rsatdiki, ingliz va o‘zbek tillarini qiyoslash tarjimonga ikki til tizimidagi farqlarni chuqur anglash imkonini beradi. Tarjimaning asosiy tayanchi — kontekst: lingvistik va ekstralingvistik kontekstni hisobga olmay turib, to‘g‘ri variantni tanlab bo‘lmaydi. Ingliz tili analitik, o‘zbek tili esa agglyutinativ bo‘lgani uchun kelishik, egalik, artikl kabi kategoriyalar va so‘z tartibi bir-biriga mos kelmaydi. Bunday holatlarda leksik transformatsiya, transliteratsiya va transpozitsiya tarjima sifatini oshiradi. Idiomalar esa so‘zma-so‘z emas, ma’no va madaniy moslikka ko‘ra ekvivalent ibora bilan beriladi: “break a leg” — “Omad yor bo‘lsin!”. Ikki tilli lug‘atlar va qiyosiy tahlil ko‘nikmalari tarjima xatolarini kamaytirishning eng ishonchli vositasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Salomov G‘. Tarjima nazariyasiga kirish. – Toshkent: O‘qituvchi, 1978.
2. Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: Fan, 2005.
3. Комиссаров В.Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). – М.: Высшая школа, 1990.
4. Бархударов Л.С. Язык и перевод. – М.: Международные отношения, 1975.

5. Catford J.C. A Linguistic Theory of Translation. – London: Oxford University Press, 1965.
6. Newmark P. A Textbook of Translation. – New York: Prentice Hall, 1988.
7. Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. – London: Routledge, 1992.
8. Vinay J.-P., Darbelnet J. Comparative Stylistics of French and English. – Amsterdam: John Benjamins, 1995.